

## **HARBIY-SPORT BAYRAMLARINI TASHKILLASHDA CHQBT RAHBARINING VAZIFALARI**

**Madaliev Raxmuddin Ismoilovich**

Farg`ona davlat universiteti Harbiy ta`lim fakulteti o'qituvchisi

**To'xtanazarov Ilxomjon Ibragimjanovich**

Farg`ona davlat universiteti Harbiy ta`lim fakulteti o'qituvchisi

**Alinazarov Nodirxon Nosirxonzoda**

Farg`ona davlat universiteti Harbiy ta`lim fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Bilimyurti direktori reja bilan tanishib chiqqandan so'ng, pedagogik kengashda uning mazmunini barcha o'qituvchilarga yetkazadi va bayramni o'tkazish uchun mas'ul shaxslar yoki bayramni o'tkazish ma'muriyatini tayinlaydi. Bu shaxslarga bayramga tayyorlanish bo'yicha vazifalar, ularning bajarilish muddatlari yetkaziladi. CHQBT rahbari bayramga tayyorlanish mashqlari va bayram oldi yakuniy mashqlarining qachon o'tkazilishini e'lon qiladi. Shundan so'ng, CHQBT rahbari bayramni o'tkazish uchun zarur bo'lgan moddiy bazani tayyorlashga kirishadi.

**Kalit so`zlar:** Harbiy-sport bayramlari, bayramni rejalahtirish, harbiy-sport bayramini o'tkazish uslubiyoti, sportning harbiy-amaliyturlari, harbiy-sport bayramlarining rejasi, moddiy-texnik baza, ko'rgazmali vositalar, bayram taklifnomalari.

O'quvchilar bilan birga musobaqa o'tkaziladigan sport maydonchalarini, musobaqalar uchun zarur bo'lgan qurol-yarog'larni, o'qdorilarni, ommaviy qirg'in qurollaridan himoyalanish vositalarini, granatalar va tibbiy anjomlarni tayyorlaydi. Agar musobaqalar o'tkazish uchun biror bir narsa yetishmasa, CHQBT rahbari bilim yurtining xo'jalik ishlari bo'yicha mudiri yoki direktor orqali uni topishga harakat qilishi kerak.

Bayram o'tkaziladigan joy tayyorlanib, minbar qo'yiladi, taklif etilganlar uchun joylar ajratiladi. Bayram o'tkaziladigan joy rang-barang bayroqlar, harbiy-vatanparvarlik va sog'lom avlod mavzusidagi shiorlar, bilim yurti faoliyatini hikoya qiluvchi ko'rgazmali vositalar bilan bezatilgan bo'lishi kerak. Bayramga taklif etilganlar uchun maxsus, chiroyli qilib bezatilgan taklifnomalar tayyorlanadi va bu taklifnomalar bilim yurtining faol o'quvchilari tomonidan taklif etilganlarga topshiriladi.

CHQBT rahbari bilim yurti direktori orqali bayram tantanalariga orkestrni jalb qilishga harakat qilishi kerak. Agar bilim yurti o'z orkestriga ega bo'lsa, u holda orkestr ham reja bo'yicha tayyorgarlik ishlarijalb qilinadi. Harbiy

sport bayramida orkestrni qatnashishi katta ahamiyatga egadir. Chunki orkestr sadolari ostida shaxdam qadamlar bilan yurish, qo'shiqlar aytish orkestr ijrosidagi harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi musiqalar, bayram tantanalariga o'zgacha joziba kiritib, bayram qatnashchilari va ishtirokchilariga yaxshi kayfiyat, xursandchilik hislarini baxsh etadi. CHQBT rahbari albatta buni nazarda tutishi kerak.

- Hakamlar hay'ati hakamlarni tanlab, ularni tayyorlaydi. Ularga musobaqa shartlarini, qonun-qoidalarini yetkazadi va musobaqalarga haqqoniy tarzda hakamlik qilishlari haqida ko'rsatmalar beradi.

- Har bir musobaqa turi bo'yicha qoidalarni ishlab chiqadi va ularni sinf rahbarlari orqali har bir sinf o'quvchilariga yetkazadi. Komandalar tuzishda o'quvchilarga yaqindan ko'mak berib, tayyorgarlik mashg'ulotlari jadvalini tuzadi, va uning bajarilishini nazorat qilib boradi.

- Bilim yurti suratchisiga yoki taklif qilingan suratchiga bayram tantanalarini qanday tartibda tasmaga tushirish haqida ko'rsatmalar beradi.

- Bayramdan 10-15 kun oldin butun bilim yurti miqyosida mashqlar o'tkazishni belgilaydi.

- Bayramdan 2-3 kun oldin orkestr ishtirokida bayram oldi mashqlarini o'tkazadi. Agar CHQBT rahbari, o'ziga yaxshi yordamchi o'quvchilarni tanlay olsa va ularni bayram tantanalarini yuqori saviyalarda o'tkazish kerakligiga ishontira olsa, shuningdek, o'quvchilarning harakatlari, qiziqishlari va intilishlarini to'g'ri yo'naltira bilsa, bayramga tayyorgarlik bo'yicha barcha masalalarni muvaffaqiyatli ychish mumkin. Albatta, shu o'rinda sinf rahbarlari va bayram tadbirlari uchun mas'ul bo'lgan boshqa shaxslar haqida ham aytib o'tish kerak. CHQBT rahbarining vazifasi birinchi navbatda, bu shaxslarga o'z vazifalari nimalardan iborat ekanligini eslatib turish va ularni bu vazifalarni sidqidildan bajarishlariga erishishdir.

Harbiy-sport bayramini o'tkazish uslubiyoti (namuna)

Quyida harbiy-sport bayramini o'tkazish tartibining namunasi berilgan:

- Bilim yurtining saflanishi;
- CHQBT rahbarining direktorga ma'lumotnomasi;
- Bayramga taklif etilganlarga gullar, esdalik sovg'alarni taqdim etish;
- Bilim yurti direktorining kirish so'zi;

- Bilim yurtining «O'quvchilarning CHQBT fani bo'yicha o'qishlarining yakunlari to'g'risida»gi buyruqni o'qib eshittirish;

- Musobaqalar boshlanishi sharafiga bayroqni ko'tarish yoki maktab bayrog'ini saf oldidan olib o'tish;

- Harbiy-sport bayrog‘iga bag‘ishlangan qisqa muddatli miting. (Bayram qatnashchilari va mehmonlarning so‘zлari);
  - Bosh hakamning musobaqalar o‘tkazilishi tartibi haqidagi so‘zлari;
  - Shaxdam qadamlar va qo‘sish bilan saf bo‘lib o‘tish ko‘rigi;
  - Komandalarni musobaqalar o‘tkaziladigan joylarga tarqatish;
  - Musobaqalar jarayonini bilim yurti radiouzeli, fotogazetalar va jangovar varaqalar orqali yoritib borish:
    - hakamlar hay’ati tomonidan musobaqalar yakunini o‘tkazish;
    - Harbiy-sport bayramining yakuniy qismi;
    - G‘oliblarni taqdirlash;
    - Bilim yurtining eng yaxshi sportchilari tomonilan bayram bayrog‘ining tushirilishi;
    - Badiiy havaskorlik to‘garaklarining ko‘rklari;

O‘zbekiston xalqi buyuk davlat, huquqiy jamiyat qurilishi yo‘lida mardonavor mehnat qilmoqda. Bizning kundalik vazifamiz, yoshlarni ana shu qurilishlar jarayoniga jalb qilish, ular ongiga O‘zbekistonning buyuk kelajagi aynan yoshlar qo‘lida ekanligini singdirish, kundalik mashg‘ulotlar, turli tadbirlar davomida ularda vatanparvarlik tuyg‘ularini asrab-avaylab tarbiyalashdir.

Harbiy-vatanparvarlik va ommaviy-mudofaa ishlari jarayonida o‘tkaziladigan turli-tuman tadbirlar, o‘zlarning tarbiyaviy ahamiyati jihatidan muhim rol o‘ynaydilar. Bu tadbirlarni yuqori saviyalarda o‘tkazilishiga, ularning tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshishiga harbiy-vatanparvarlik va ommaviy-mudofaa ishlarini puxta rejlashtirilganligi, o‘quv yurti moddiy-texnik bazasini rivojlanganligi va CHQBT rahbari, shuningdek, pedagogik jamoani bu vazifalarni sidqidildan bajarishlari imkon yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonuni T., 1992
2. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” T., 1997
- 3.
- I.A.Karimov “Barkamol avlod orzusi” T., 1996
- 4.
- I.Karimov. XXI asr bo‘sag‘asida. –T.-1997.
- 5.
- I.Karimov. Barkamol avlod orzusi. –T.: Sharq.-1999.
6. I.Karimov. Donishmand xalqimizning mustaxkam irodasiga ishonaman. –T.-2000.

7. Davletshin M. G. «Umumiy psixologiya» T-2000y.
8. Nemov R. S. «Psixologiya» T. 1.M. 1998y.
9. Gamezo A. «Atlas po psixologii» Moskva 2001y.